“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=388

2026-yil
9-son
sentabr
ISSN 3093-8546



Pora olish jinoyatini tergov qilishda tergov harakatlarini tashkil etish va o‘tkazish taktikasi

Ulug‘bek Radjabov,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: ulugbek0678@gmail.com

Аннотация. Maqolada pora olish jinoyatini tergov qilishda tergov harakatlarini tashkil etish va o‘tkazishning protsessual hamda kriminalistik xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, pora olishning yashirin xususiyati, jinoyat ishtirokchilarining o‘zaro manfaatdorligi, pora predmeti va unga bog‘liq izlarni yashirish imkoniyati mazkur toifadagi jinoyatlarni tergov qilishda alohida taktik yondashuvni talab qilishi asoslantirilgan. So‘roq qilish, ko‘zdan kechirish, olib qo‘yish, tintuv, yuzlashtirish, ekspertiza tayinlash, hujjatlar hamda elektron ma'lumotlarni tekshirishning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Kriminalistika sohasidagi milliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, Buyuk Britaniya, AQSH va Yangi Zelandiya kabi davlatlar tajribasi o‘rganilgan. Tergov harakatlarini alohida emas, balki yagona taktik kompleks asosida rejalashtirish, raqamli dalillarni protsessual mustahkamlash va tergovchi bilan mutaxassis hamkorligini kuchaytirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Калит сўзлар. pora olish, poraxo‘rlik, tergov harakatlari, kriminalistik taktika, tergov vaziyati, so‘roq, tintuv, olib qo‘yish, raqamli dalil, elektron ma'lumot, ekspertiza, tezkor-qidiruv faoliyati

Аннотация. В статье проанализированы процессуальные и криминалистические особенности организации и проведения следственных действий при расследовании преступления получения взятки. Также обосновано, что латентный характер получения взятки, взаимная заинтересованность участников преступления, а также возможность сокрытия предмета взятки и связанных с ним следов обусловливают необходимость применения особого тактического подхода при расследовании данной категории преступлений. Освещены особенности проведения допроса, осмотра, выемки, обыска, очной ставки, назначения экспертизы, а также исследования документов и электронной информации. Проведён сравнительный анализ научных взглядов отечественных и зарубежных учёных в области криминалистики, изучен опыт таких государств, как Великобритания, США и Новая Зеландия. Разработаны предложения по планированию следственных действий не изолированно, а в рамках единого тактического комплекса, процессуальному закреплению цифровых доказательств, а также усилению взаимодействия следователя со специалистом.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Ключевые слова. получение взятки, взяточничество, следственные действия, криминалистическая тактика, следственная ситуация, допрос, обыск, выемка, цифровые доказательства, электронная информация, экспертиза, оперативно-розыскная деятельность

Annotation. The article analyzes the procedural and forensic features of organizing and conducting investigative actions in the investigation of bribery offences. It also substantiates that the covert nature of bribery, the mutual interests of the participants in the offence, as well as the possibility of concealing the subject matter of the bribe and related traces, necessitate the application of a specific tactical approach to the investigation of this category of crimes. The specific features of interrogation, inspection, seizure, search, confrontation, the appointment of forensic examinations, and the examination of documents and electronic data are discussed. A comparative analysis of the scholarly views of national and foreign forensic experts is conducted, and the experience of countries such as the United Kingdom, the United States, and New Zealand is examined. Proposals are developed for planning investigative actions not in isolation, but within a unified tactical framework, ensuring the procedural preservation of digital evidence, and strengthening cooperation between investigators and forensic specialists.

Keywords. bribe-taking, bribery, investigative actions, forensic tactics, investigative situation, interrogation, search, seizure, digital evidence, electronic information, forensic examination, operational-search activities

Korrupsiyaviy jinoyatlar orasida pora olish jinoyati oʻzining yuqori darajadagi latentligi, jinoyat ishtirokchilarining harakatlarni yashirishdan oʻzaro manfaatdorligi hamda jinoiy kelishuvning koʻp hollarda oldindan rejalashtirilishi bilan ajralib turadi. Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 210-moddasi pora olishni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organi mansabdor shaxsining muayyan harakatni pora beruvchi manfaatlarini koʻzlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor boʻlishi bilan bogʻlaydi[1].

Pora olishning kriminalistik jihatdan murakkabligi shundaki, mazkur jinoyat odatda ikki tomonning – pora beruvchi va pora oluvchining, ayrim hollarda esa vositachining ham yashirin hamkorligi sharoitida sodir etiladi. Shu sababli jinoyatni tergov qilishda faqat pora predmetini protsessual tartibda rasmiylashtirib olishning oʻzi yetarli emas. Balki, mansabdor shaxsning vakolati, pora evaziga bajarilgan yoki bajarilishi va'da qilingan harakat, tomonlar oʻrtasidagi aloqa, pul yoki boshqa manfaatning harakatlanish mexanizmi hamda mazkur holatlarni tasdiqlovchi hujjatli va raqamli izlarni bir-biri bilan bogʻliq holda isbotlash zarur.

Oʻzbekiston Oliy sudi plenumining “Poraxoʻrlik ishlari boʻyicha sud amaliyoti toʻgʻrisida”gi 1999-yil 24-sentabrdagi 19-qarori ham ushbu toifadagi ishlarda pora olishning subyekti, pora predmeti, tovlamachilik va boshqa kvalifikatsiyaga ta'sir qiluvchi holatlarni toʻgʻri aniqlash zarurligini belgilaydi[2].

Shu nuqtayi nazardan, pora olishni tergov qilish taktikasining samaradorligi alohida tergov harakatlarining soni bilan emas, balki ularning oʻz

vaqtida, oʻzaro muvofiqlashtirilgan va dalillarning maqbulligini ta'minlaydigan protsessual shaklda oʻtkazilishi bilan belgilanadi.

Kriminalistik adabiyotlarda tergov taktikasi jinoyatni ochish va isbotlash uchun qonuniy va ilmiy asoslangan eng maqbul usullarni tanlash bilan bogʻlanadi. Xususan, Gʻ. Abdumajidov (va boshqalar)ning “Kriminalistika” darsligida jinoyatlarni tergov qilish uslubiyoti qonun, tergov amaliyoti va ilmiy bilimlarga tayanishi, kriminalistik tavsiyalar esa muayyan turdagi jinoyatlarni ochish va tergov qilishning samarali tartibini belgilashga xizmat qilishi lozimligini ta'kidlangan[3]. Mazkur darslikda mualliflar tomonidan poraxoʻrlikning asosiy xususiyati sifatida uning koʻp hollarda yashirin va guvohlarsiz sodir etilishini koʻrsatib, dastlabki tergov vaziyatiga qarab hujjatlarni olib qoʻyish va koʻzdan kechirish, guvohlarni soʻroq qilish, tintuv, pora predmetini koʻzdan kechirish, yuzlashtirish va ekspertiza kabi harakatlarni oʻzaro bogʻliq ravishda amalga oshirishni tavsiya qilgan[4].

Bu yondashuv bugun ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Biroq zamonaviy pora olish jinoyatlarida jinoiy kelishuv messenjerlar, elektron pochta, masofaviy toʻlovlar, bank oʻtkazmalari va boshqa raqamli vositalar orqali amalga oshirilishi mumkinligi sababli an'anaviy kriminalistik tavsiyalarni raqamli dalillar bilan ishlash qoidalari asosida rivojlantirish talab etiladi.

R. Belkin kriminalistik taktika doirasida “taktik kombinatsiya”ni muayyan tergov vazifasini hal qilishga qaratilgan va aniq bir tergov vaziyati bilan shartlangan taktik usullar yoki tergov harakatlarining uygʻunlashgan tizimi sifatida tushuntiradi[5]. Ushbu yondashuv pora olishni tergov qilish uchun ayniqsa muhim hisoblanadi. Chunki pora predmetini ashyoviy dalil sifatida ollish, mansabdor shaxsni soʻroq qilish, uning telefonidagi yozishmalarni oʻrganish va xizmat hujjatlarini olib qoʻyish bir-biridan uzilgan harakatlar sifatida oʻtkazilsa, ularning isbotlovchi ahamiyati pasayishi mumkin.

N. Yablokov esa poraxoʻrlikni tergov qilish metodikasida tipik tergov vaziyatlari, versiyalarni ilgari surish va rejalashtirishni dastlabki hamda keyingi tergov harakatlari bilan uzviy bogʻliq holda koʻradi[6]. Bizningcha, ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, u tergovchini “avvalo qaysi harakatni oʻtkazish kerak?” degan savoldan oldin “mavjud vaziyat qanday va qaysi versiya birinchi navbatda tekshirilishi lozim?” degan masalani hal qilishga yoʻnaltiradi.

O. Bayevning tergov harakatlari taktikasiga doir qarashlarida esa tergov harakatining tayyorgarlik, bevosita oʻtkazish va natijalarni protsessual mustahkamlash bosqichlari oʻrtasidagi bogʻliqlikka katta e'tibor qaratiladi[7]. Bu yondashuv ham pora olishni tergov qilishda muhim hisoblanib, xatto toʻgʻri tanlangan tergov harakati uning natijalari lozim darajada bayonnoma, foto, audio, video yoki raqamli ma'lumotlar bilan qayd etilmasa, sudda kutilgan darajadagi isbotlovchi yuridik kuchga ega boʻlmasligi mumkin.

Yuqorida keltirib oʻtilgan huquqshunos olimlarning qarashlaridan kelib chiqqan holda ta'kidlash joizki, nazariy jihatdan pora olish jinoyatini tergov qilish taktikasi uch element birligidan tashkil topishi lozim boʻlib, bular: birinchisi – tergov vaziyatini toʻgʻri baholash, ikkinchisi – harakatlarni muvofiqlashtirish orqali rejalashtirish va uchinchisi – olingan natijalarni protsessual jihatdan ishonchli mustahkamlashdir.

Tergov harakatlarini tashkil etishning oʻziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, pora olish toʻgʻrisidagi jinoyat ishlarida dastlabki tergov vaziyati kelib tushgan ma'lumotning xususiyatiga qarab keskin farq qilishi mumkin.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Masalan, bir holatda shaxs undan pora talab qilinayotganligi haqida huquqni muhofaza qiluvchi organga oldindan xabar bersa, boshqa holatda pora allaqachon berilgan boʻladi. Uchinchi vaziyatda esa jinoyat haqidagi maʼlumot tezkor-qidiruv faoliyati yoki boshqa jinoyat ishini tergov qilish davomida aniqlanishi mumkin.

Shu sababli yagona, barcha ishlar uchun bir xil ketma-ketlikdagi tergov harakatlarini belgilash metodik jihatdan notoʻgʻri hisoblanadi. Shu sababli tergovchi dastlab jinoyatning ehtimoliy mexanizmini modellashtirishi, pora beruvchi, pora oluvchi va ehtimoliy vositachilarni, pora evaziga bajarilgan xizmat harakatini, pora predmetining kelib chiqishi va harakat yoʻnalishini aniqlashi kerak. Bunda tergov rejasi faqat “soʻroq – tintuv – ekspertiza” kabi umumiy nomlardan iborat boʻlmasligi lozim. Har bir harakat orqali qaysi fakt tekshirilishi, uni qaysi boshqa dalil bilan solishtirish va natijasiga qarab qaysi versiya rad etilishi yoki tasdiqlanishi oldindan belgilab qoʻyilishi maqsadga muvofiq boʻladi.

Soʻroq qilish taktikasi. Soʻroq qilish tergov harakati barcha turdagi jinoyatlar boʻyicha oʻtkaziladigan tergov harakati hisoblanadi. Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksining 96–108-moddalar soʻroq qilishning umumiy qoidalarini belgilab beradi. Xususan, soʻroq qilinuvchiga avval ish holatlari haqida erkin soʻzlab berish imkoniyati berilishi, keyin esa aniqlashtiruvchi savollar berilishi mumkinligi, ishora qiluvchi savollarga yoʻl qoʻyilmasligi, soʻroq jarayonida narsalar, hujjatlar va elektron maʼlumotlarni koʻrsatish hamda ovoz yoki videoyozuvdan foydalanish imkoniyati mavjudligi kabilardir[8].

Pora olish ishlarida soʻroq taktikasining asosiy vazifasi faqat aybdoligini tasdiqlovchi koʻrsatmalarni olishga erishish boʻlmasligi kerak. Aksincha, soʻroq qilish taktikasi orqali shaxsga maʼlum boʻlgan aniq faktlarni imkon darajada detallashtirish muhim hisoblanadi. Jumladan, tomonlar qachon va qanday tanishgani, birinchi muloqot kim tomonidan boshlangani, qanday xizmat masalasi muhokama qilingani, pora miqdori kim tomonidan aytilgani, pul yoki boshqa qimmatlik qayerda va qay tarzda topshirilgani, ushbu vaqtda qanday elektron yozishmalar yoki telefon qoʻngʻiroqlari boʻlgani aniqlashtirilishi lozim.

Taktik jihatdan pora beruvchi, vositachi, guvoh va gumon qilinuvchilarni soʻroq qilish vaqtini muvofiqlashtirish ham katta ahamiyatga ega. Soʻroqlar orasidagi ortiqcha vaqt shaxslarga koʻrsatuvlarni kelishib olish, elektron maʼlumotlarni oʻchirish yoki boshqa izlarni yoʻqotish imkonini bermasligi kerak. Biroq tezkorlik qonuniylik va himoya huquqini taʼminlash talablaridan ustun boʻlishi mumkin emas.

Soʻroqda avvaldan mavjud obyektiv dalillarning barchasini bir vaqtda ochib berish ham har doim maqsadga muvofiq emas. Tergovchi koʻrsatuvning tabiiy shakllanishiga imkoniyat berib, keyin hujjat, elektron yozishma yoki boshqa dalilni koʻrsatish orqali qarama-qarshiliklarga aniqlik kiritishi mumkin. Bunda psixologik bosim, aldovning qonunga zid shakllari yoki koʻrsatuvni majburan olishga qaratilgan har qanday usullarga yoʻl qoʻyilmasligi lozim.

Koʻzdan kechirish, pora predmetini qayd etish va hujjatlar bilan ishlash. JPKning 135-moddasi koʻzdan kechirish uchun protsessual asoslarni belgilaydi. Xususan, jinoyat izlari, ashyoviy dalillarni topish, hodisa sodir boʻlgan vaziyatni va ish uchun ahamiyatli boʻlgan boshqa holatlarni aniqlashtirish maqsadida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud hodisa sodir boʻlgan joyni, murdani,

hayvonlarni, tevarak-atrofni, binolarni, narsalarni, hujjatlarni va elektron ma'lumotlarni ko‘zdan kechiradi. Shuningdek, kodeksning 140-moddasi narsalar, hujjatlar va elektron ma'lumotlarni ko‘zdan kechirish tergov harakati o‘tkazishni tartibga soladi. Unga ko‘ra, ko‘zdan kechirish texnik vositalardan foydalanilgan holda, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlarida, agar narsalarning yoki hujjatlarning yoxud elektron ma'lumotlarning yo‘qolishiga yoki shikastlanishiga olib kelmasa, shuningdek Internet jahon axborot tarmog‘ida o‘tkazilishi mumkin[9].

Pora predmetini ko‘zdan kechirishda uning turi, miqdori, individual belgilari, joylashuv holati, o‘rami va ish uchun ahamiyatga ega boshqa xususiyatlar to‘liq qayd qilinishi kerak. Bunda nafaqat predmetning o‘zi, balki unda qolishi mumkin bo‘lgan barmoq izlari, mikrozarrachalar, o‘ram materiallari yoki boshqa kriminalistik ahamiyatga ega obyektlarni saqlab qolish masalasi ham hisobga olinadi.

G‘. Abdumajidovga ko‘ra, pora olish jinoyatini tergov qilishda hujjatlarni ko‘zdan kechirish, mansabdor shaxsning pora beruvchi manfaatini ko‘zlab muayyan harakat qilgan yoki qilmaganligini, hujjatdagi g‘ayrioddiy o‘zgartishlar va qalbakilashtirish belgilarini aniqlash imkonini berishini ta'kidlaydi. Ushbu fikrlarni o‘rinli ekanligini ta'kidlagan holda aytish joizki, hozirgi zamonaviy sharoitda bu fikrni yanada kengaytirish zarur deb hisoblaymiz. Hozir “hujjat” tushunchasi faqat qog‘oz shakli bilan cheklanmaydi. Davlat organlarining elektron axborot tizimlaridagi qarorlar, elektron imzo bilan tasdiqlangan hujjatlar, tizimga kirish vaqti va elektron operatsiyalar ham jinoyat mexanizmini tiklash uchun muhim manba bo‘lishi mumkin.

Olib qo‘yish va tintuv taktikasi. O‘zbekiston JPKning 157-moddasiga muvofiq ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan narsa, hujjat yoki elektron ma'lumotning qayerda va kimda ekanligi aniq ma'lum bo‘lib, uni qidirish talab etilmasa, olib qo‘yish tergov harakati amalga oshirilsa, 158-modda talablariga ko‘ra, surishtiruvchi va tergovchi biror turar joy, xizmat, ishlab chiqarish binosida yoki o‘zga joyda yoxud biror shaxsda ish uchun ahamiyatli bo‘lgan narsalar yoki hujjatlar yoxud elektron ma'lumotlar bor deb o‘ylash uchun yetarli ma'lumotga ega bo‘lgan taqdirda tintuv o‘tkazishga haqli hisoblanadi[11].

Pora olish ishlarida tintuvning taktik maqsadi faqat pora sifatida berilgan pulni topishdan iborat bo‘lmasligi lozim, balki tintuv davomida jinoiy munosabatlarni tasdiqlovchi yozuvlar, shartnomalar, noqonuniy manfaat olinganini ko‘rsatuvchi hujjatlar, elektron qurilmalar va boshqa dalillarni mavjudligiga ham e'tibor qaratish lozim hisoblanadi. Bunda tintuvning natijadorligini oshirish maqsadida uni boshqa harakatlar bilan muvofiqlashtirish muhimdir. Masalan, o‘zaro kelishib harakat qilgan bir necha shaxslar mavjud bo‘lganda tegishli protsessual asoslar bilan turli joylardagi harakatlarni bir vaqtda o‘tkazish dalillarni yo‘q qilish yoki ishtirokchilar o‘rtasida ma'lumot almashish ehtimolini kamaytiradi. Shu bilan birga har qanday taktik harakat shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklashga yoki buzilishiga olib kelmasligi kerak.

Raqamli dalillarni olish va mustahkamlash taktikasi. Pora olishni tergov qilishning zamonaviy metodikasida eng katta o‘zgarish raqamli dalillar ahamiyatining ortishi bilan bog‘liq. Amaldagi JPKda elektron ma'lumot va raqamli dalillarga maxsus normalar ajratilgan bo‘lib, kodeksning 204-1-moddasi elektron ma'lumot tushunchasini, 204-2-moddasi esa raqamli

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

dalillarni belgilaydi. Raqamli dalil nusxasini olishda uning yaxlitligi va aynan o‘xshashligi saqlanishi talab etiladi[12]. Bundan ham muhim qoida JPKning 95-1-moddasida nazarda tutilgan olib qo‘yish yoki ko‘zdan kechirish bo‘yicha tergov harakatlarida mutaxassis ishtirokisiz olingan elektron ma'lumotlar nomaqbul dalil deb topilishi mumkinligi qayd etilgan[13].

Mazkur norma pora olish jinoyatlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv va tergov harakatlarini o‘tkazishda alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki messenjer yozishmalari, elektron pochta, telefon xotirasi, elektron hujjatlar yoki bank operatsiyalariga oid ma'lumotlarni faqat ekran rasmi sifatida qayd qilish ba'zi hollarda ularning manbasi, yaxlitligi va haqiqiyligini isbotlash uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli raqamli ma'lumot bilan ishlashda uning qaysi qurilma yoki axborot tizimidan olingani, olish vaqti, ma'lumotning formati, metama'lumotlari, ko‘chirma olish usuli va yaxlitligini tekshirish imkonini beruvchi texnik ma'lumotlar protsessual hujjatlarda qayd etilishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa “raqamli izning saqlanish zanjiri”ni ta'minlashga xizmat qiladi.

Y. Ishenkoning zamonaviy kriminalistikaga oid qarashlarida ham samaradorlik atamalarni yangilashning o‘zida emas, balki tergov metodikasi, taktik harakatlar va izlarni aniqlash hamda qayd etish usullarining texnik va algoritmik jihatdan puxta tashkil etilishida ekanligi ta'kidlanadi. Bu fikr raqamli dalillar bilan ishlashda ayniqsa asosli bo‘lib, zamonaviylik faqat yangi qurilmadan foydalanish emas, balki uning natijasini protsessual jihatdan ishonchli dalilga aylantirish qobiliyati bilan belgilanadi.

Sud ekspertizalarini tayinlash. Pora olish ishlarida ekspertiza jinoyat predmeti, hujjatlar, elektron ma'lumotlar va boshqa izlar bo‘yicha obyektiv ilmiy xulosa olish imkonini beradi. Ish holatidan kelib chiqib, hujjatlarning kriminalistik-texnik ekspertizasi, xatshunoslik, daktiloskopik, sud-buxgalteriya, kompyuter-texnik, audio va video materiallarga oid hamda boshqa ekspertizalar tayinlanishi mumkin. Milliy kriminalistik adabiyotlarda ham pora predmeti yoki uning o‘ramidagi izlar, yozuvlar, hujjatlar va hisob-kitoblarga oid holatlarni tekshirishda ekspert imkoniyatlaridan foydalanish alohida qayd etilgan[15].

Biroq ekspertiza tayinlashda ekspertga beriladigan savollar ishda tekshirilayotgan versiya va aniq faktik holatlardan kelib chiqishi kerak. Tergovchi huquqiy baholashga taalluqli savollarni ekspert zimmasiga yuklamasligi, biroq maxsus bilim talab qiladigan texnik yoki iqtisodiy holatlarni aniq ifodalashi lozim.

Pora olish yashirin jinoyat bo‘lganligi sababli uni aniqlashda tezkor-qidiruv imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq tezkor ma'lumotning mavjudligi uni avtomatik ravishda sudda dalil sifatida qabul qilinishiga olib kelmaydi. Tergovchi tezkor axborot asosida olingan ma'lumotlarni JPK talablariga muvofiq tekshirishi va protsessual shaklda mustahkamlashi lozim.

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi 50-moddasi ham korrupsiyaga qarshi samarali kurashish maqsadida nazorat ostida yetkazib berish, elektron yoki boshqa kuzatuv shakllari va yashirin operatsiyalar kabi maxsus tergov usullaridan milliy huquq prinsiplariga muvofiq foydalanish hamda ular asosida olingan dalillarni sudda qo‘llash imkonini ta'minlashni nazarda tutadi[16]. Shu bilan birga, mazkur usullarning yashirin xususiyati insonning shaxsiy hayoti va kommunikatsiyalar daxlsizligiga daxl qilishi mumkinligi sababli qonuniy asos,

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

mutanosiblik va mustaqil nazorat mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi. UNODC ham maxsus tergov usullarini qo‘llashda huquqiy asosning aniqligi, ruxsatning maqsad va obyekt bo‘yicha cheklanganligi va tegishli nazorat kafolatlarini muhim deb hisoblaydi.

Buyuk Britaniya tajribasida pora olish va korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilishda, ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilishga ixtisoslashgan Og‘ir iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi (Serious Fraud Office)ning maxsus vakolatlari e'tiborga molik. Jumladan, 1987-yilda qabul qilingan “Jinoiy odil sudlov to‘g‘risida”gi qonun (Criminal Justice Act 1987)ning 2-bo‘limi doirasida SFO shaxsdan savollarga javob berishni, ma'lumot taqdim etishni yoki hujjatlarni berishni talab qilish vakolatiga ega. Qonunchilikda xalqaro pora va korrupsiyaga oid holatlarda bunday vakolatlar tergov boshlanishidan oldingi ma'lumot to‘plash bosqichida ham qo‘llanilgan[17].

Bizningcha, Britaniya modelidagi e'tiborli jihat shundaki, murakkab korrupsiya ishi faqat bitta tergov harakati orqali emas, balki hujjatlarni majburiy taqdim ettirish, so‘roq va zarur holda sud ruxsati bilan qidiruv choralarini birlashtirgan institutsional mexanizm orqali tergov qilinadi. Shu bilan birga, ushbu tajribani O‘zbekistonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki ma'lumotni tezkor saqlab qolish va moliyaviy-hujjatli izlarni erta bosqichda aniqlash nuqtayi nazaridan o‘rganish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, Buyuk Britaniyada 2010-yilda qabul qilingan pora berish va pora olish bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlikni kompleks tartibga soluvchi “Bribery Act” nomli qonun pora olish alohida holatlar asosida baholanishi lozimligini qayd etadi hamda prokurorlar uchun maxsus qo‘llanma mavjudligi ham yagona huquqni qo‘llash amaliyotini shakllantirishga xizmat qiladi[18].

AQSHda 1977-yilda qabul qilingan “Xorijiy korrupsiya amaliyotlariga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunda (Foreign Corrupt Practices Act) ushbu toifadagi ishlar federal darajada markazlashtirilgan holda muvofiqlashtirishga katta e'tibor beriladi. AQSH Adliya vazirligi yo‘riqnomasida xorijiy mansabdor shaxslar bilan bog‘liq tergovlar yurisdiksiya, xorijdagi guvohlarni so‘roq qilish, bank hisobvaraqlari va boshqa davlatlar organlari bilan hamkorlik kabi murakkab masalalarni keltirib chiqarishi sababli markazlashtirilgan nazorat zarurligi ta'kidlangan[19].

AQSH tajribasida korporativ korrupsiya ishlarida hujjatlarni saqlash, xorijdagi hujjatlarning joylashuvini aniqlash, ularni kim saqlashi va qaysi shaxslar yaratgani haqidagi ma'lumotlarni to‘plashga ham katta e'tibor beriladi. Bu holat pora olishni tergov qilishda oddiy “pul topildi – jinoyat isbotlandi” yondashuvi o‘rniga jinoiy munosabatlarning hujjatli va axborot zanjirini tiklash zarurligini ko‘rsatadi.

Yangi Zelandiya amaliyotida ham e'tiborli jihatlarni ko‘rish mumkin. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning 2024-yilgi baholashiga ko‘ra, mamlakat Og‘ir moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi (Serious Fraud Office) og‘ir korrupsiyaviy ishlarda shaxslarni majburiy chaqirish, savollarga javob olish, axborot va hujjatlarni talab qilish hamda suddan tintuv uchun ruxsat olish imkoniyatlariga ega ekanligi, amaliy ishlarda ixtiyoriy va majburiy so‘roqlar, hujjatlarni taqdim etish talablari, tintuv orderlari, telekommunikatsiyalar tahlili, sud-buxgalteriya va elektron-kriminalistik tahlil kabi vositalar kompleks tarzda qo‘llanganligi qayd etilgan[20].

Ushbu xorijiy tajribalarni umumlashtirganda, korrupsiya ishlarini samarali tergov qilishning umumiy tendensiyasi – faqat “hal qiluvchi dalil”ni qidirish emas, balki shaxsni koʻrsatuvlari, moliyaviy axborot, xizmat hujjatlari, raqamli ma'lumotlar va xalqaro huquqiy yordam natijalarini yagona dalillar tizimiga birlashtirishdan iboratligini koʻrish mumkin.

Yuqoridagi tahlil asosida pora olish jinoyatini tergov qilish amaliyotini takomillashtirish maqsadida quyidagi yondashuvlarni joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Birinchidan **–** pora olishni tergov qilishning situatsion algoritmini ishlab chiqish**.** Bunda arizachi huquqni muhofaza qiluvchi organga pora berilgunga qadar murojaat qilgan, pora allaqachon berilgan, jinoyat tezkor ma'lumot orqali aniqlangan va koʻp epizodli korrupsiya holatlari uchun alohida tergov algoritmlari nazarda tutilishi lozim.

Ikkinchidan **–** “Dalillarni tizimlashtirish jadvali” asosida tergov harkatlarini rejalashtirishni joriy etish. Bunda tergov rejasida jinoyat tarkibining har bir isbotlanishi lozim boʻlgan elementiga qaysi soʻroq, hujjat, elektron ma'lumot, ekspertiza yoki boshqa dalil orqali aniqlik kiritilishi koʻrsatilishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan **–** raqamli dalillar bilan ishlash boʻyicha maxsus kriminalistik amaliy qoʻllanma ishlab chiqish. Unda elektron qurilmaning identifikatsiya belgilari, ma'lumotni olish usuli, nusxaning yaxlitligi, metama'lumotlar, mutaxassis ishtiroki va raqamli ma'lumotning saqlanish zanjirini qayd qilish tartibi belgilanishi lozim.

Toʻrtinchidan **–** tergovchi, tezkor xodim, moliyaviy tahlilchi va raqamli kriminalistika mutaxassisi oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytirish**.** Korrupsiya ishlarida har bir mutaxassisni faqat alohida topshiriq bajaruvchi emas, balki yagona tergov versiyasini tekshirishga xizmat qiluvchi funksional ishtirokchi sifatida jalb qilish yanada samarali boʻladi.

Beshinchidan **–** hujjatli va raqamli dalillarni tez saqlab qolish mexanizmini takomillashtirish. Pora olish haqida ma'lumot kelib tushgan dastlabki bosqichda jinoyatga aloqador elektron ma'lumotlarning oʻzgarishi yoki yoʻqolishi xavfi baholanib, qonun doirasida ularni saqlash choralari koʻrilishi kerak.

Oltinchidan **–** pora olish ishlarini tergov qilish boʻyicha (zamon talablariga mos ravishda) idoralararo metodik tavsiyalarni ishlab chiqish**.** Bunda an'anaviy soʻroq, tintuv va koʻzdan kechirish taktikasi bilan bir qatorda raqamli dalillar, bank va moliyaviy ma'lumotlar, kriptoaktivlar va transchegaraviy axborot almashinuvi bilan ishlash masalalari ham qamrab olinishi lozim.

Xulosa oʻrnida ta'kidlash joizki, pora olish jinoyatini samarali tergov qilish tergov harakatlarining koʻpligiga emas, balki ularni aniq tergov vaziyatidan kelib chiqib toʻgʻri tashkil etish, bir-biri bilan muvofiqlashtirish va natijalarini qonuniy tartibda mustahkamlashga bogʻliq.

Kriminalistika fanida shakllangan an'anaviy yondashuvlar – tergov vaziyatini baholash, versiyalar tuzish, soʻroq, tintuv, olib qoʻyish, hujjatlarni koʻzdan kechirish va ekspertizalarni oʻzaro bogʻliq holda oʻtkazish – hozirgi kunda ham fundamental ahamiyatga ega. Biroq pora olishning zamonaviy shakllari raqamli kommunikatsiyalar va elektron moliyaviy munosabatlar bilan chambarchas bogʻlanayotgani mazkur metodikani yangi mazmun bilan boyitishni talab qilmoqda.

Shu ma'noda G‘. Abdumajidov va boshqa huquqshunos olimlarning situatsion yondashuvi, R. Belkinning taktik kombinatsiyalar nazariyasi, N. Yablokovning tipik tergov vaziyatlari va rejalashtirishga oid qarashlari zamonaviy raqamli kriminalistika imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirilishi maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, xorijiy tajriba ham korrupsiya ishlarini tergov qilishda so‘roq, hujjatlarni olish, tintuv, moliyaviy tahlil, raqamli ekspertiza va xalqaro huquqiy hamkorlikni yagona kompleksda qo‘llash ustuvor ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli O‘zbekistonda pora olish jinoyatlarini tergov qilish metodikasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi tergov harakatlarini situatsion algoritmlashtirish, raqamli dalillarni ishonchli protsessual mustahkamlash va tergovchi hamda maxsus bilimga ega mutaxassislar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishdan iborat bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси.
2. Ўзбекистон Республикаси Олий суди пленумининг 1999 йил 24 сентябрдаги “Порахўрлик ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги 19-қарори.
3. Абдумажидов Ғ.А. ва бошқ. Криминалистика. II жилд. – Тошкент: Адолат, 2003. 5–6-бетлар.
4. Абдумажидов Ғ.А. ва бошқ. Криминалистика. II жилд. – Тошкент: Адолат, 2003. 106–111-бетлар.
5. Белкин Р.С. Курс криминалистики. Т. 1. – М., 1997. – С. 204–205.
6. Яблоков Н.П. Криминалистика: учебник. 2-е изд. – М., 2001. – С. 713–724, хусусан С. 717–719.
7. Баев О.Я. Тактика следственных действий: учебное пособие. – Воронеж: Изд-во Воронежского университета, 1992. – 205 с.
8.9. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси.
10. Абдумажидов Ғ.А. ва бошқ. Криминалистика. II жилд. – Т.: Адолат, 2003. 109–110-бетлар.
11.12.13. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси.
14. Ищенко П.П. Криминалистические технологии или технологичность криминалистики // Lex Russica. 2024. № 6. С. 129–137. DOI: 10.17803/2311-5998.2024.118.6.129-137.
15. Абдумажидов Ғ.А. ва бошқ. Кўрсатилган асар. 110–111-бетлар.
16. United Nations Convention against Corruption. Article 50; UNODC, Legislative Guide for the Implementation of the United Nations Convention against Corruption.
17. Criminal Justice Act 1987, section 2; Serious Fraud Office investigative powers. Қаранг: Economic Crime and Corporate Transparency Act 2023 explanatory materials.
18. Crown Prosecution Service. Bribery Act 2010: Joint Prosecution Guidance of the Director of the Serious Fraud Office and the Director of Public Prosecutions.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

19. U.S. Department of Justice. Justice Manual, 9-47.000 – Foreign Corrupt Practices Act and Foreign Extortion Prevention Act.

20. OECD. Anti-Bribery Convention Phase 4 Report on New Zealand. 2024. – paras. 191–194.